



**IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH BOSH BOSHQARMASI
BUYRUQ**

2021 y “14” “ 01 ”

Nº 3-Ф

Namangan sh.

Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi hamda hududiy bo‘limlarida kompyuter texnikalaridan foydalanish va ish faoliyatida axborot xavfsizligini ta’minalash, xodimlarning mas’uliyatini yanada oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”, “Elektron raqamlı imzo to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 8 iyuldagagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-117-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 22 noyabrdagi 256-son qarori hamda 2013 yil 14 iyundagi 170-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi ISOO/IEC 27002:2008-son davlat standarti talablaridan kelib chiqqan holda,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”, “Elektron raqamlı imzo to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 8 iyuldagagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-117-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 22 noyabrdagi 256-son qarori hamda 2013 yil 14 iyundagi 170-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bosh boshqarma hamda hududiy bo‘limlardagi xodimlar kompyuterlardan maqsadli va oqilona foydalanish, kompyuter tizimlari va tarmoqlaridagi axborot xavfsizligini ta’minalash hamda axborot xavfsizligi siyosatiga qa’tiy rioya etish bo‘yicha javobgar mas’ul hisoblanadi.

3. Mazkur buyruq bilan mas’ul xodimlarga:

axborot xavfsizligini ta’minalashga qat’iy rioya qilish;

axborot butligini ta’minalash, shu bilan birga axborot elementlarining buzilishi yoki yo‘q qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik;

axborotlarni tegishli huquqlarga ega bo‘lmagan shaxslar yoki jarayonlar orqali tarmoqdan ruxsat etilmagan holda olishga yo‘l qo‘ymaslik;

egasi tomonidan berilayotgan axborot va resurslar faqat tomonlar o‘rtasida kelishilgan asosda qo‘llanilishini ta’minlash;

antivirus dasturlaridan keng foydalanish va kunlik bazasini yangilash va davriy ravishda kompyuterlarni antivirus dasturlari yordamida virusga qarshi tekshirish;

litsenzion dasturiy ta’minotlardan foydalanish va norasmiy dasturlarni qo‘llanilmaslik vazifalari yuklansin.

4. Bosh boshqarmaning barcha bo‘lim boshliqlari va shahar va tumanlar bo‘limlari:

barcha bo‘lim xodimlari kompyuterga parol bilan kirish, tashqaridan olib kelningan axborot tashuvchi (disk,usb,hdd) vositalarni antivirus dasturi yordamisiz ochmaslikni ta’minlash;

kompyuterga kiritilayotgan dasturlarda virus mavjudligini tekshirish;

antivirus dasturlaridan keng foydalanish va davriy ravishda kompyuterlarni antivirus dasturlari yordamida virusga qarshi tekshirish;

faoliyatga oid bo‘lmagan veb saytlarga kirish, video, o‘yinlar, pornografik fayllardan foydalanmaslik;

kompyuterdagи ma‘lumotlarni tashqariga va begona odamlar qo‘liga tushib qolmasligi uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin.

5. Bosh boshqarma xodimlar bilan ishlash va maxsus ishlar bo‘limi (D.Xamidov), bosh yuriskosult (S.Xudoyberganov) hamda axborot texnologiyalari va xavfsizligi bo‘yicha xodimi (A.Nurmatov):

xizmat faoliyatiga doir bo‘lmagan veb saytlarga kirish, video, o‘yinlar, pornografik fayllardan foydalanish holatlari aniqlansa tegishli tartibda mazkur holat yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish hamda qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy chora ko‘rilishini ta’minlasin.

6. Bosh boshqarma axborot texnologiyalari va xavfsizligi bo‘yicha xodimi (A.Nurmatov):

ish faoliyatiga ko‘ra bosh boshqarmada kompyuterlarni doimiy nazorat qilib borish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklansin.

6. Bosh boshqarmaning devonxona bo‘limi (A.Baybabayeva) qabul qilingan buyruq nusxasini bosh boshqarma hamda uning quyi bo‘limlariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Ushbu buyruq bajarilishi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig‘ining
birinchi o‘rinbosari



M.Abdullayev